# ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI AUDITI TASHKIL QILISH MASALALARI

***Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li***
*(Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi)*
*akbarjon@gmail.com ORCID: 0009-0004-2630-3840*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ishlab chiqarish auditni tashkil etishni ayrim masalalari ko'rib chiqilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Ishlab chiqarish jarayoni, moddiy ne'matlar, ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, nazorat, tannarx.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены некоторые вопросы организации производственного аудита и разработаны рекомендации.

**Ключевые слова:** Производственный процесс, материальные блага, состав издержек производства, контроль, себестоимость.

**Abstract:** In this article, some issues of production audit organization were considered and recommendations were developed.

**Key words:** Production process, material goods, composition of production costs, control, cost.

Kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarish xarajatlari auditi tashkil qilish masalalari bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi. Asosan, bu masalalar xarajatlarni aniqlash va nazorat qilish, ishlab chiqarish jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash, xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini ta'minlashga qaratilgan. Auditning asosiy maqsadi ishlab chiqarish xarajatlarining qonuniyligini, moliyaviy hisobotlarda aks ettirilganligining aniqligini va ularni kamaytirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Ishlab chiqarish jarayoni to'g'risidagi ma'lumot turli manbalarda turlicha qo'llanilgan. Do'smuratov R.D ning takidlashicha ishlab chiqarish jarayoni- bu kishilarni o'zlarining iste'moli uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatidir. Moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish, turli xizmatlar ko'rsatish jarayoni kishilar iqtisodiy faoliyatining asosiy tomonidir[1]. Odatda, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir yoki boshqacha qilib aytganda, tabiatdagi bor narsalarning ko'rinishini o'zining iste'moli uchun muvofiq holga keltirish uchun qilingan mehnat faoliyatidan iboratdir. Bizning fikrimizcha ishlab chiqarish jarayoni — bu xomashyo va materiallarni mahsulotga aylantirish uchun bir qator texnologik operatsiyalar va harakatlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir.

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning ichki qonuniyatlari

va uning rivojlanish xususiyatlari koʻpgina iqtisodchi olimlar tomonidan koʻrsatib berilgan. Ular mehnat kishilar yashashining umumiy asosidir deb ta’riflaydilar. Demak, mehnat iste’mol qiymatlarini yaratuvchi sifatida, foydali mehnat sifatida kishilarning yashashi uchun hech qanday ijtimoiy shakllarga bog’liq boʻlmagan holda abadiy tabiiy zaruriyatdir, mehnat boʻlmaganda kishi bilan tabiat oʻrtasida modda almashinuvi ham mumkin boʻlmas edi. Kishilar oʻzlarining ongli maqsadga muvofiq unumli mehnati bilan tabiat moddalarining shakllarini oʻzgartiradilar va iste’moli uchun zarur boʻlgan mahsulotni vujudga keltiradilar[2]. Mehnat jarayonida kishilar bilan tabiat oʻrtasida moddalar almashinuvi bilan birga insonning oʻzi ham har tomonlama kamol topib boradi, ya’ni kishilar oʻzining mehnatga boʻlgan qobiliyatini, bilimini oshiradi va ularni amalda qoʻllashni kengaytirib boradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayoni iste’mol qiymatlarni vujudga keltirish uchun maqsadga muvofiq qilinadigan harakatdir, tabiat yaratgan narsalarni kishi iste’moli uchun oʻzlashtirib olishdir, kishi bilan tabiat oʻrtasidagi modda almashuvining umumiy shartidir, kishi hayotining abadiy tabiiy sharoitidir[3].

Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxini hisoblashni auditorlik tekshiruvidan oʻtkazishdan maqsad:

- sodir boʻlgan xoʻjalik muomalalarini hisobga olib, tannarxning toʻgʻri shaklllanishini Oʻzbekiston Respublikasi me’yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlagan holda, ishlab chiqarish xarajatlarining yuzaga chiqishi va javobgarlik markazlari boʻyicha hisobga olish va soliq toʻlanadigan bazaning aniq hisob-kitobini yuritish va bu orqali ishlab chiqarish xarajatlari hamda korxona sarflarini boshqarishni tashkil etishdan iborat.

Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxini hisoblashni auditorlik tekshiruvidan oʻtkazishda quyidagi vazifalar mavjud:

-ishlab chiqarish xarajatlarini oʻrganish va ularning holatiga baho berish;

-mahsulot tannarxini pasaytirish boʻyicha belgilangan rejaning bajarilishi va dinamikasini nazorat qilish;

-ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementi va kalkulyatsion moddalari boʻyicha oʻrganish va ularga baho berish;

-tannarxning oʻzgarish sabablarini aniqlash va unga ta’sir etuvchi omillarni miqdor jihatidan hisoblash;

-ayrim turdagi mahsulot tannarxini xarajat moddalari boʻyicha tahlil etish;

-tannarxni pasaytirish boʻyicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash va boshqalar.

Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tartibga soluvchi asosiy hujjat-Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot(ish,xizmat)larni ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi toʻg’risidagi Nizom» boʻlib hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining to‘g‘riligini va mahsulot, ish hamda xizmatlar tannarxi to‘g‘risidagi hisobotni tuzishning to‘g‘riligini nazorat qilish uchun quyidagilarni tekshirish lozim: hisobot davridagi haqiqiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida o‘z vaqtida, to‘liq va ishonarli aks ettirilishi; ishlab chiqarishga xarajat qilingan xom ashyolar, materiallar, yoqilg’ilar, extiyot qismlar va yoqilg’i-moylash materiallarini baholashning tug’riligi; belgilangan xarajat smetalari, lavozim maoshlari, tarif stavkalari, ishlab chiqarish xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va mukofatlash haqidagi Nizomga rioya qilish ustidan nazoratning ta’minlanganligi; noishlab chiqarish sarflari va yo‘qotishlarning paydo bo‘lish sabablari hamda hisobdan o‘chirilishning asoslanganligi; ularni kamaytirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblashning to‘g‘riligi; tovar-moddiy boyliklarning hisob bahosidan chetga chiqqan summalar (transport tayyorlov xarajatlari)ni hisobdan o‘chirishning to‘g‘riligi; tovarlar, YoMM va boshqa qiymatliklar tabiiy kamayishini hisobdan o‘chirishning to‘g‘riligi; quyidagi xarajatlarni maxsulot (ish,xizmat)lar tannarxiga qo‘shishning to‘g‘riligi va asoslanganligi; ta’sis hujjatlariga muvofiq qo‘shma korxonada ishlab chiqarishda bevosita ishlaydigan chet el fuqarolariga berilgan turar joylar va kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar; xizmat safarida va yo‘lda bo‘lgan vaqt, turar joy ijarasi, xizmat safari joyiga borib qaytish yo‘l xarajatlari uchun tasdiqlangan me’yorlar doirasida,ishlab chiqarish faoliyati bilan bog’liq chet el xizmat safari xarajatlari[4].

Asosiy xarajatlar, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlarining to‘g‘ri va asoslangan hamda me’yorlarga muvofiqligini tekshiriladi. Mahsulot (ish,xizmat) larning rejadagi va hisobot kalkulyatsiyasining to‘g‘riligini xarajat moddalari bo‘yicha tekshiriladi. Natijada reja va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovutlarni moddalar bo‘yicha tahlil qilinib, tafovutlar sababini aniqlanadi. Xom ashyo va materiallar sarflashning to‘g‘riligi, baholar to‘g‘riligini tekshirish metodlari, mahsulot (ish,xizmat) birligiga to‘g‘ri keladigan sarf me’yoriga rioya qilinishi tekshiriladi. Brak (yaroqsiz) dan ko‘rilgan yo‘qotishlar va ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarini yopishning to‘g‘riligini tekshirish.

Auditor shuni yaxshi bilishi zarurki, mahsulot(ish,xizmat)lar tannarxi buxgalteriya hisobida oddiy faoliyat turlari bo‘yicha hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish,xizmat kursatish) va realizatsiya bilan bog‘liq sarflar yig’indisi kabi aniqlanadi.

Tannarx soliqqa tortish maqsadlarida hisob elementi sifatida esa soliqqa tortiladigan bazani kamaytiradigan miqdor bo‘lib hisoblanadi. Ushbu ta‘rifdagi tafovut faqat shaklan ya‘ni atamashunoslik nuqtai nazaridan emas, balki miqdor jihatidan hamdir. Chunki, soliqqa tortish maqsadida hisoblanadigan tannarxga odatdagi faoliyat turlariga doir sarflar belgilangan me’yor(limit)lar va cheklashlarni hisobga olgan holda qo‘shiladi. Mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish,xizmat ko‘rsatish) xarajatlari

to‘langan vaqtidan qat’iy nazar (oldin yoki keyinchalik to‘langan), qaysi hisobot davriga taalluqli bo‘lsa, shu davr tannarxiga qo‘shiladi. Xo‘jalik faoliyatidagi faktlarning vaqtinchalik aniqlik tamoili tannarxni to‘g‘ri shakllantirish uchun tovar-moddiy zahira (ish,xizmat)lar qiymatining to‘langanlik fakti emas, balki ularni ishlatish(sarflash) fakti ahamiyatli ekanini bildiradi. Xarajatlarni hujjatlashtirish tamoyili auditorning xarajatlarni asoslash uchun isbotlovchi hujjatlarning mavjudligi, hamda ushbu muomalalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning to‘g‘riligini tasdiqlash vazifasini belgilab beradi.

Yuqorida nomi qayd qilingan, «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq barcha xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

1. Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v)boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar,shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ustama xarajatlar. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmasdan, davr sarflari tarkibida hisobga olinib, asosiy faoliyatdan olingan foyda hisobidan qoplanadigan xarajatlar:

a) sotish xarajatlari;

b) boshqaruv xarajatlari(ma’muriy sarf-xarajatlar);

c) boshqa muomala xarajatlari va zararlar.

2. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki ko‘rilgan zararlarni hisoblab chiqarishda hisobga olinadigan, uning moliyaviy faoliyatiga doir xarajatlar:

a) foizlar bo‘yicha sarflar;

b) xorijiy valyuta muomalalari bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari;

v)qimmatli qog’ozlarga qo‘yilgan mablag’larni qayta baholash; g)moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlar.

3. Foyda solig’ini to‘lagunga qadar bo‘lgan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqarishda hisobga olinadigan favqulodda zararlar.

Odatda ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

Ishlab chiqarish xarajatlari doimiy va o‘zgaruvchan (faoliyatga bog‘liq) xarajatlarga bo‘linadi.

**Xulosa qilib aytganda**, kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarish xarajatlari auditi korxona uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, samarali boshqarish va nazorat qilish orqali raqobatbardoshlik va moliyaviy barqarorlikka erishishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Do‘smuratov R.D. Audit asoslari.-T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-612 s
2. Fayziev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Kuziev I.N., Avlokulov A.Z.

Audit: Darslik -T.: "Iqtisod-Moliya", 2015y. – 430 b.
3. Tuychiev A., Qo'ziev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 620 b.
4. Kuziev I., Tuychiev A., Xojiev M., Yakubov M. Vnutrenniy audit. "Iqtisod-Moliya", 2019 g. – 421 str."
5. Akbarjon, I. (2024). XARAJATLARNI BUDJETLASHTIRISH BIZNES REJANING MUHIM ASOSI SIFATIDA. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *41*(5), 22-28.
6. Boxodir o'g'li, I. A. (2023). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF COSTS AS A BASIS OF BUDGETING. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, *12*(04), 9-12.
7. ўғли Исомухамедов, А. Б., & Икромиддин Қутбиддинович, С. (2023). БЮДЖЕТЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *GOLDEN BRAIN*, *1*(11), 406-412.
8. Boxodir o'g'li, I. A. (2022). FEATURES OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *5*, 64-70.
9. Kadirov, S., Isomukhamedov, A., Ergashev, O., & Bakhriev, A. (2021). *The Method of Increasing the Power Indicators of Engines of Gas-Cylinder Vehicles in Mountainous and Foothill Conditions* (No. 5398). EasyChair.
10. Сирожиддинов, И. К., & Исомухамедов, А. Б. (2022). Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства.
11. Isomuhamedov, A. (2023). ORGANIZATION OF ACCOUNTING IN STRUCTURES OF A SMALL BUSINESS IN THE CONSTRUCTION FIELD. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *17*(12), 27-32.
12. Isomukhamedov, A., & Sirojiddinov, I. (2022, January). DETERMINING AND ACCOUNTING FOR THE COST OF PRODUCTION IN SMALL BUSINESSES IN THE MANUFACTURING SECTOR. In *Conference Zone* (pp. 241-243).
13. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Ugli, B. O., Karimbaevna, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, *22*(2), 431-442.
14. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *41*(2), 82-86.
15. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(4), 56-62.
16. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.

17. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, *55*.
18. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, *10*(2S), 2849-2859.
19. Khakimov, B. J., AIimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
20. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, *12*(11), 38-47.
21. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
22. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1 (68)), 102-105.
23. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent–2023*.
24. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *3*(5), 109-115.
25. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.
26. Xolmirzayev, U. B., & Xakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 96-98.
27. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *41*(5), 17-21.
28. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, *12*(7).
29. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *42*(1), 197-206.
30. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
31. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О

ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.

32. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1 (22)), 299-302.
33. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
34. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, *2020*(1), 18.
35. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, *100*.
36. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debitor debt debt analysis. *Мировая наука*, (1 (34)), 100-105.
37. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.
38. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления*, (5), 182-184.
39. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. *American Journal of Economics and Business Management*, *4*(3), 1-8.
40. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In *Conference Zone* (pp. 129-132).
41. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, *11*, 34-39.
42. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум*, (2 (45)), 34-36.
43. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, *10*(2S), 2107-2114.
44. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, *10*(2S), 3695-3702.
45. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(1), 203-209.

46. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, *1*(3), 42-50.
47. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *Questions of Economics and Management*, *5*(7), 6.
48. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, *2*(3), 424-432.
49. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
50. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *8*(4), 419-423.
51. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1 (68)), 48-52.
52. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Интернаука*, (21-5), 20-22.
53. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Интернаука*, (21-5), 9-11.
54. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. *TRANS Asian Research Journals*, *8*(4).
55. Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *Интернаука*, (21-5), 17-19.
56. Abdulazizovich, X. U. B., & Djabirxanovna, N. M. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBINING TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, *12*(3), 288-297.
57. Abdulazizovich, X. U. B., & Raxmjonovna, M. N. (2024). QIMMATLI QOG'OZLARNI ANALITIK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, *12*(4), 18-28.